Global International Conference

MODERN SCIENCE AND TECHNOLOGY: GLOBAL CHALLENGES AND SUSTAINABLE SOLUTIONS

2026.04.23

Tashkent, Osh

КЫРГЫЗ РЕСПУБЛИКАСЫ
ОШ МАМЛЕКЕТТИК УНИВЕРСИТЕТИ

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

UNITED KINGDOM
ACADEMIC RESEARCH PUBLISHER LTD

****

МАТЕРИАЛДАР
Эл аралык онлайн илимий-практикалык конференция
«ЗАМАНБАП ИЛИМ ЖАНА ТЕХНОЛОГИЯЛАР: ГЛОБАЛДЫК КӨЙГӨЙЛӨР ЖАНА ТУРУКТУУ ЧЕЧИМДЕР»
Ош, Ташкент, Лондон
2026-жылдын 23-апрели

MATERIALLARI
Xalqaro onlayn ilmiy-amaliy konferensiya
ZAMONAVIY FAN VA TEXNOLOGIYALAR: GLOBAL MUAMMOLAR VA BARQAROR YECHIMLAR
Osh, Toshkent, London
2026 23-aprel

MATERIALS
the international scientific-practical conference
«MODERN SCIENCE AND TECHNOLOGY: GLOBAL CHALLENGES AND SUSTAINABLE SOLUTIONS»
Tashkent, Osh, London
April 23, 2026

****

6. https://www.teachingenglish.org.uk/professional-development/teachers/knowing-subject/articles/top-tips-teaching-speaking

7. Brown, H. D. (2007). Teaching by Principles: An Interactive Approach to Language Pedagogy. Pearson Longman.

8. Celce-Murcia, M. (2001). Teaching English as a Second or Foreign Language. Heinle & Heinle.

9. Nation, I. S. P., & Newton, J. (2009). Teaching ESL/EFL Listening and Speaking. Routledge.

10. Harmer, J. (2007). How to Teach English. Pearson Education.

11. Thornbury, S. (2017). Fluency in English Language Teaching. Cambridge University Press.

12. https://www.academicpublishers.org/journals/index.php/ijai/article/view/496

13. https://pedagogs.uz/ped/article/view/778

https://art.jdpu.uz/index.php/fll/article/view/1112

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARIDA REFLEKSIV KO‘NIKMALARNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ZARURATI

Jo‘rayeva Maftuna Dilshodbek qizi

Andijon davlat universiteti

13 00 02-Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

yo‘nalishi 3-bosqich doktoranti

Andijon viloyat pedagogik mahorat markazi

„Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim metodikalari’’

kafedrasi o‘qituvchisi

E-mail: Maftunaxon1992.07@gmail.com

Tel: 99 692 92 44

Annotatsiya: *Ushbu maqolada hozirgi kunda Respublikamizdagi oliy ta'limlarning boshlang'ich ta'lim yo'nalishida tahsil olib kelayotgan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining refleksiv ko'nikmalarini rivojlantirishning mazmuni va pedagogik shart-sharoitlari hamda refleksiv ko'nikmalarni rivojlantirish pedagogik zaruratligi haqida fikr boradi.*

Kalit so'zlar: *Boshlang'ich ta'lim, refleksiya, pedagogika, ko'nikma, refleksiv ko'nikma, pedagogik mahorat, intellektual refleksiya, shaxsiy refleksiya, kommunikativ refleksiya.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются содержание и педагогические условия развития рефлексивных навыков будущих учителей начальных классов, обучающихся в настоящее время по направлению начального образования в высших учебных заведениях нашей республики, а также педагогическая необходимость развития рефлексивных навыков.*

Ключевые слова: *начальное образование, рефлексия, педагогика, умение, рефлексивное умение, педагогическое умение, интеллектуальное размышление, личное размышление, коммуникативное размышление.*

Annotation: *This article discusses the content and pedagogical conditions of the development of reflexive skills of future primary school teachers who are currently studying in the direction of primary education of higher education in our Republic and the pedagogical necessity of developing reflexive skills.*

Keywords: *Elementary Education, reflection, pedagogy, skills, reflexive skills, pedagogical skills, intellectual reflection, personal reflection, communicative reflection.*

KIRISH

Dunyoda boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini kasbiy rivojlantirish, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining refleksiv ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik jihatlari yuzasidan ko'p ilmiy

izlanishlar va tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Shu bilan birga oliy ta'limda tahsil olayotgan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining refleksiv ko'nikmalarini shakllantirishda neyropedagogik mashqlardan foydalanishning modulini ishlab chiqish va neyropedagogik mashqlar tizimidan foydalanish texnologiyalarini joriy qilishga doir pedagogik tizimini ishlab chiqish muhim dolzarblik kasb etadi. Bu esa o'z navbatida rivojlantiruvchi neyropedagogik mashqlar tizimini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Respublikamizda —Ta'lim to'g'risidagi Qonuni va —Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida mamlakatimiz ta'lim tizimida amalga oshirilgan tub islohotlar shaxsga yo'naltirilgan ta'limni joriy etishga, ya'ni har tomonlama bilimli, dunyoqarashi keng, raqobatbardosh, komil insonni tayyorlashga katta e'tibor qaratilmoqda. Bunga erishish uchun talabalarni uzluksiz ta'lim bosqichlarida turli sohalar bo'yicha egallagan bilimlarni kundalik hayotda amaliy qo'llashga o'rgatish orqali ularda refleksiv ko'nikma va malakalarni hosil qilish kerak bo'ladi. Bugungi globallashuv davrida ta'limning asosiy vazifalaridan biri talabalarga nafaqat bilim berish hamda egallagan bilimlari asosida refleksiv ko'nikma va malakalar hosil qilish, balki ularni amaliyotda qo'llay olish layoqatini shakllantirishdan iborat. Bu barcha fanlarni o'qitishda kompetent yondashuvni joriy etish vazifasini o'rtaga qo'ydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son farmoni va mazkur farmon ijrosini ta'minlash maqsadida 2020 - yil 6 noyabrda qabul qilingan "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-son qarorda mamlakatimiz ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini takomillashtirish, jamiyatimizda o'qituvchi va pedagog xodimlar ilmiy va ijodkor ziyolilarga bo'lgan hurmat-e'tiborni yanada oshirish, o'qituvchilarning kasbiy mahoratini rivojlantirish, tizimda xususiy sektor ishtirokini kengaytirish

maqsadida O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini yanada rivojlantirishning asosiy yo’nalishlari belgilab berildi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI:

Dastlab qadimgi yunon falasafasida qo‘llanilgan „refleksiya’’ atamasi insonning ichki fikrlarini tavsiflaydi. Dekart buni fikrlash harakati sifatida belgilab, o‘z fikrlari mazmunini tekshirishni ta’kidladi. Sokrat, Platon, Lokk va boshqa yunon faylasuflarining ta’kidlashicha, refleksiya insonning o‘zini va o‘zidagi mavjud imkoniyatlarini tushunishga intilishidir. Kant, Hegel, Fixte va Shelling kabi Yevropalik faylasuflar insonning kognitiv taraqqiyotining asosi refleksiya ekanligiga ishonishgan.O‘qituvchining kasbiy ta’lim faoliyatida aks ettirish jarayonini o‘rganuvchi ko‘plab olimlar uning kommunikativ va koopertiv shakllarini birinchi o‘ringa qo‘yishadi, chunki ular o‘qituvchining pedagogik faoliyati va o‘quvchilar bilan muloqoti bu strategiyalarni aniq namoyon qiladi deb o‘ylashadi. (V.A.Krivosheev, G.P. Shchedrovitskiy va boshqalar).

Refleksiya – bu J.Lokkning fikricha, ong faol bo‘lgan kuzatish.Refleksiya so‘ziga ixcham psixologik lug‘atda quyidagicha ta’rif beriladi: Refleksiya (lot. Reflexio-ortga nazar, murojaat) subyektning o‘zining ichki psixik harakatlari va holatlaridan xabardor bo‘lish jarayonidir. Refleksiyaga falsafa fanida asos solinib, insonning o‘z g‘oya va fikrlarini hisobga olish harakati sifatida belgilandi.Refleksiya R.Dekartning fikricha, shaxsning o‘zini barcha tashqaridan, moddiy obyektlardan ajratish va o‘ fikrlari mavzusiga diqqatni jamlash qobiliyatidir. J.Lokk aks ettirishni alohida bilim manbai (sezgi a’zolariga asoslangan tashqidan farq qiluvchi ichki tajriba) sifatida ko‘rib, sezish va aks ettirish o‘rtasidagi farqni ko‘rsatdi.

Yuqorida bildirilgan buyuk olimlarning fikrlaridan kelib chiqib shuni aytish joizki, refleksiya bu o‘z-o‘zini anglash, ortga nazar tashlash, o‘z xatti harakatlarini o‘zi tahlil qilish va tahlil natijalaridan kelib chiqib o‘ziga baho

berish hisoblanadi. Shu o'rinda kasbiy jihatdan har bir pedagog o'zining kasbiy nuqtai nazaridan kasbiy refleksiyaga ega bo'lishi lozim.

Tadqiqot metodologiyasi. O'z kasbiy faoliyatida duch keladigan murakkab muammolarni xal qilish va boshlang'ich sinf o'qituvchilarini yangicha ijodiy fikrlashga o'rgatishda refleksiv kompetentlik va neyropedagogik mashqlardan samarali foydalanish kasbga oid vaziyatlarga to'liq kirishish va moslashish uchun shart-sharoitlarni yaratib beradi.

Respublikamizdagi oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari kasbiy refleksiyani amalga oshirish uchun bir nechta usullardan foydalanishlari mumkin:

Jurnal yuritish: O'qituvchilar o'z darslari va tajribalari haqida yozish orqali o'z fikrlarini tizimlashtirishlari mumkin.

Guruh muhokamalari: Hamkasblar bilan birgalikda kasbiy faoliyati doirasida tajriba almashish, birgalikda muammolarni muhokama qilish orqali o'z fikrlarini rivojlantirish.

Mentorlar bilan ishlash: Ilg'or tajribali, malakali o'qituvchilar yoki mentorlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish, ulardan maslahat olish orqali o'z ish faoliyatlarini rivojlantirish.

Video qaydlar: O'z darslarini videoga olish va keyinchalik tahlil qilish, o'z faoliyatini baholashda samarali usuldir. Ushbu sanab o'tilgan usullar orqali bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'z pedagogik faoliyatida samarali natijalarni qo'lga kiritish bilan bir qatorda ilg'or pedagogik tajribalarga ega bo'lgan malakali ustozlardan ilg'or tajribalarni o'rganib o'zlashtirib boradilar.

TAHLIL VA NATIJALAR.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy refleksiyani rivojlantirish yosh pedagog kadrlarning o'z ish faoliyatini samarali tashkil qilish va yosh avlodga sifatli va samarali ta'lim berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Sababi, ta'lim mazmunini tushunish refleksiv ko'nikmalarni rivojlantirishning eng muhim maqsadidir. Ma'lumotni eshitgandan so'ng, jalb qilingan talabalar

odatda har qanday anglay olmagan tushunchalarni yoki chalkashliklardan iborat bo‘lgan mavhum atamalarni qayd etib boradilar yoki keyinroq tushuntirish olish maqsadida savollar berishadi. Buning aksi bo‘lgan nofaol talabalar esa xatto tushunmovchiliklar, chalkashliklar yoki tushunmaydigan narsalarani hisobga ham olmaydilar.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining o‘z ishini samarali tashkil etishi, kelajak avlodga sifatli va samarali ta’lim tarbiya berishlari uchun ularning kasbiy refleksiyaga ega bo‘lishi muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, bu sinf o‘qituvchilariga o‘z o‘qitish strategiyalarini yangilash va darslarni samarali hamda o‘quvchilarining o‘quv maqsadlariga mos keladigan tarzda rejalashtirish imkoniyatini beradi.

Refleksiv ko‘nikmalar orqali boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari o‘zlarining pedagogik va kasbiy qobiliyatlarini tekshiradilar va o‘zlarining xatolari va kamchiliklarini tan oladilar. Ular o‘zlarining mavjud zaif tomonlarini bartaraf etish, o‘zlarini takomillashtirish va o‘quvchilarga turli xil zamonaviy metodologiyalar asosida yangi materiallarni o‘rgatishga harakat qilish uchun tadqiqotlar olib boradilar.

Bundan tashqari kasbiy refleksiya boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini o‘z ish faoliyatini o‘zi tahlil qilib mavjud kamchiliklarni o‘zi bartaraf qilganligi sababli ulardagi depressiyani kamaytiradi va stressli holatlarni oldini oladi.

Refleksiv ko‘nikmalarni rivojlantirishga doir ilmiy ishlar qilgan ko‘plab olimlar refleksiyaning I.N.Semyonov tomonidan taklif qilingan tasnifiga tayanadilar. U refleksiyaning quyidagi turlarini taklif etib sharhlaydi:

1. Intellektual refleksiya: Refleksiyaning ushbu turida o‘qituvchilar mavjud muammolarni mustaqil fikrlash asosida ijobiy hal qilishni belgilaydi.

2. Shaxsiy refleksiya: O‘qituvchining nizoli (konfliktlar) pedagogik ziddiyatlardan turli xil noxush oqibatlarsiz, nizolarsiz bartaraf etishni fikran izlanish asosida bartaraf qilishni ta’minlaydi.

3. Kommunikativ refleksiya: Muloqot jarayonida o‘qituvchi pedagoglarning jamoadoshlari bilan o‘zaro bir-birlarini tushunib munosabat qilishni ta’minlaydi.

4. Kooperativ refleksiya: Jamoa a’zolarining birgalikdagi o‘zaro muntazam mehnat faoliyatlarini muvofiqlashtirish bilan bog’liq bo‘lgan faoliyat.

I.N.Semyonov tomonidan tasniflangan ushbu refleksiya turlari boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining shaxsiy kasbiy rivojlantirish bilan bir qatorda ularda jamoaviy va hamkorlikda ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilimini rivojlantirishda pedagogik refleksiya muhim ahamiyatga ega. Shunday ekan Y.N.Kulyutkina, Y.S.Turbovskiy, P.V.Xudominskiy kabi tadqiqotchi olimlarning fikricha, o‘quvchining doimiy pedagogik faoliyati, mazmunan refleksiv xususiyatga ega bo‘lib, u barcha refleksiv jarayonlarni qamrab oladi.

O‘qituvchi pedagoglarda refleksiv ko‘nikmalarni rivojlantirish bo‘yicha turlicha qarashlar mavjud bo‘lib haligacha aniq bir xulosaga kelinmagan. Ko‘plab olimlar refleksiv ko‘nikmalarga oid tadqiqot ishlari olib borgan bo‘lib, ularning farazlari turlicha. Ana shunday olimlardan biri A.A.Bizyaevaning tadqiqot ishida aniqlanishicha, insonning faoliyatini tahlil qilish va tushunish, shuningdek, o‘zini-o‘zi tahlil qilish, va o‘zini-o‘zi baholash zarurati bilan bog‘liq bo‘lgan zaruriy omillar bo‘lajak o‘qituvchilar refleksiyasining asosiy tarkibiy qismlari hisoblanib bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy mulohazalari, ularning intellektual aks ettirish qobiliyatlari bilan bevosita bog‘liq emas.Bular , bizning fikrimizcha, bo‘lajak o‘qituvchining muntazam kasbiy rivojlanishini kafolatlaydigan yordamchi xususiyat sifatida qabul qilinadi. Bo‘lajak o‘qituvchilarni pedagogik ma’lumotlarni to‘liq tushunish va qo‘llash uchun mulohaza yuritish qobiliyatiga ega bo‘lishida refleksiv ko‘nikma muhim ahamiyat kasb etadi.

Yu.N.Kulyutkinning fikricha – o‘qituvchi pedagog o‘zining pedagogikjarayonlarini refleksiya predmetiga aylantirishi lozim. Buning uchun

esa o‘qituvchida bu jarayonlarni tahlil qilishning tegishli tafakkur usullari shakllangan bo‘lishi kerak».

Pedagogik refleksiyani G.M. Kodjaspirova shaxsning o‘z-o‘zini anglashi sifatida, „Bu nafaqat o‘qituvchining o‘z harakatini to‘g‘ri baholay olishi, balki pedagogik muloqot jarayonida o‘qituvchi bilan muloqotda bo‘lgan o‘quvchilar jamoasi, ta’lim va tarbiya uchun mas’ul shaxslar, ota-onalar uni qanday qabul qilishini tushunish qobiliyatidir’’ deya ta’riflaydi. O‘qituvchi pedagoglarda refleksiv ko‘nikmalarani shakllantirishga doir ko‘plab tadqiqot ishlarini ko‘rib o‘rganib chiqar ekanmiz ushbu muammoning hali o‘rganilmagan jihatlari ko‘pligini ko‘rishimiz mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR.

Yil sayin boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi va pedagogik mahoratini oshirish standartlari o‘sib bormoqda. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining o‘ziga xos faoliyatini muvafaqqiyatli amalga oshirishga imkon beradigan malakasi ularning ta’lim iste’dodining namoyonidir. Hozirgi vaqtda ilgari o‘rganilgan pedagogik texnika va ko‘nikmalarni qo‘llash bilan bir qatorda yangi va innovatsion yondashuvlarni yaratish, so‘ngra ularning kasbiy va shaxsiy fazilatlarini uslubiy jihatdan oshirish zarur. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining pedagogik qobiliyatlari va malakalarini rivojlantirishning zaruriy shartlaridan biri bu refleksiv ko‘nikmalarni neyropedagogik mashqlardan foydalanish jarayonlari orqali boshqarishdir. Murakkab tuzilmani aks ettiruvchi yangi pedagogik yondashuv refleksiv kompetensiya deb ataladi. Kasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirish va mustaqil jismoniy faoliyatni va kasbiy faoliyatga ijodiy yondashishni ta’minlash uchun bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari refleksiv ko‘nikmalarini yanada takomillashtirib borishlari va amaliyotda samarali foydalana olishlari kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YHATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-son farmoni.
2. 2020 -yil 6 noyabrda qabul qilingan “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4884-sonli qaror.
3. O’zbekiston Respublikasi prezidentining 08.10.2020-yildagi P.F. 5847-son „O’zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish’’ konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risidagi qarori.
4. 29.10.2020-yildagi P.F. 6097-sonli „Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risidagi qarori.
5. 01.04.2021-yilda esa „Ilm-fan sohasidagi davlat siyosati va innovatsion rivojlantirishdagi davlat boshqaruvini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risidagi 5047-sonli prezident qaror
6. S. N. O. Erdanova Zamira Olimovna, "Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida refleksiv ko'nikmalarini rivojlantirish jarayonlarini takomillashtirish.," in International conference on modern devolopment of pedagogy an linguistics 62-bet, Volume 01, Issue 02, 2024.

7. 1. №. -. С. 3. 1. Кулюткин Ю.Н. Развитие творческого потенциала учителя в процессе его последипломного образования //Проблемы непрерывного образования. –Псков. –Курсив.

8. Sh. Mirziyoyev., Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. 14-bet, Toshkent: O'znekiston., 2016.

9. X. M. Baxtiyorovna, "Bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik mahoratini oshirish jarayonida refleksiv ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'ziga xos jihatlari.," in Research focus international scientific journal, Uzbekistan, Volume 3, Issue 11, 2024.

10. Q. A. Kamolovna, Pedagogika va Psixologiya haqida , yosh o'qituvchilarda kasbiy refleksiyaning o'rni., Online ISSN; 3030-3508.493-494-betlar, 2024. Volume 1, Issue 2, October.

11. Кулюткин Ю.Н. Развитие творческого потенциала учителя в процессе его последипломного образования //Проблемы непрерывного образования. –Псков. –Курсив.

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA HISSIY INTELLEKTNING O'RNI

A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy institutining magistranti

Nuriddinova Zulxumor Odiljon qizi

Annotatsiya: *Umumiy o'rta ta'lim maktablarida boshqaruv samaradorligini oshirish zamonaviy ta'lim tizimining muhim vazifalaridan biridir. Ushbu jarayonda rahbarlarning shaxsiy va kasbiy kompetensiyalari, xususan, hissiy intellekt darajasi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Mazkur bitiruv malakaviy ishi umumiy o'rta ta'lim maktablari boshqaruvida hissiy intellektning o'rni va uning samaradorlikka ta'sirini ilmiy-nazariy jihatdan asoslashga qaratilgan. Tadqiqot natijalari maktab rahbarlarining hissiy intellektini rivojlantirish orqali boshqaruv jarayonlarini optimallashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi. Bu esa ta'lim muassasalarida sog'lom muhitni shakllantirish va o'quv-tarbiya jarayonlari sifatini oshirishga yordam beradi.*

Kalit so‘zlar: *hissiy intellekt, boshqaruv samaradorligi, umumiy o'rta ta'lim maktablari*